O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI HUZURIDAGI IXTISOSLASHTIRILGAN TA’LIM MUASSASALARI AGENTLIGI
IS’HOQXON IBRAT NOMIDAGI NAMANGAN DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI

«TASDIQLAYMAN»
O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor
__________prof., P.M. Lutfullayev
«30» ______12______2025-yil

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI HUZURIDAGI IXTISOSLASHTIRILGAN TA’LIM MUASSASALARI AGENTLIGI IS’HOQXON IBRAT NOMIDAGI NAMANGAN DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI
O‘QUV-USLUBIY BOSHQARMA

## 60230100-Filologiya tillarni o‘qitish (ingliz tili) yo‘nalishi bitiruvchilarining fanlararo yakuniy davlat attestatsiya sinovi

# DASTURI

*2025/2026 o‘quv yili*

**Tuzuvchilar:**

| | |
|---|---|
| M.Tursunov | "Ingliz tili va adabiyoti" kafedrasi mudiri |
| M.Qoraboyev | "Ingliz tili va adabiyoti" kafedrasi dotsenti |
| M.Tursunova | "Ingliz tili va adabiyoti" kafedrasi dotsenti |
| S.A'zamov | "Ingliz tili va adabiyoti" kafedrasi dotsenti |

**Taqrizchilar:**

| | |
|---|---|
| O.O.Dadaboyev | "Ingliz tili va adabiyoti" kafedrasi dotsenti. |
| I.I.Umrzaqov | "Ingliz tili va adabiyoti" kafedrasi dotsenti. |

60230100-Filologiya tillarni o'qitish (ingliz tili) yo'nalishi bitiruvchilarining fanlararo yakuniy davlat attestatsiya sinovi dasturi Ingliz tili va adabiyoti kafedrasining 2025-yil 27-dekabrdagi № 5-sonli majlisida muhokama qilingan hamda tasdiqqa tavsiya etilgan.

**Kafedra mudiri** **M.Tursunov (PhD)**

Kunduzgi ta'lim shakli 60230100-Filologiya tillarni o'qitish (ingliz tili) yo'nalishi bitiruvchilarining maxsus (majburiy) fanlar bo'yicha attestatsiya sinovi dasturi Namangan davlat chet tillari instituti Kengashining 2025-yil 30-dekabrdagi № 4-sonli majlisida muhokama qilinib, tasdiqlangan.

**Kengash kotibi** **A. Sulaymonov**

## I. UMUMIY QOIDALAR

**1.** 60230100 **-**Filologiya tillarni o’qitish (ingliz tili) ta’lim yo‘nalishi bitiruvchilarining fanlararo yakuniy davlat attestatsiya sinovi dasturi (keyingi o‘rinlarda – **Dastur**) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 13-dekabrdagi “Oliy va kasbiy ta’lim tashkilotlari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 836-son qarori bilan tasdiqlangan “Oliy ta’lim tashkilotlari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasini o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom, 2018 yil 10 sentyabrdagi 20-2018-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Oliy ta’lim muassasasi professor-o‘qituvchilar tarkibining o‘quv yuklamasi hamda o‘quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot va «ustoz-shogird» ishlarini belgilash qoidalari”, 2021 yil 18 avgustdagi 356-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan “60230100-Filologiya tillarni o’qitish (ingliz tili) bakalavriat ta’lim yo‘nalishining malaka talablari” (keyingi o‘rinlarda – **Malaka talablar**) hamda 2022-yil 7-sentabrda Namangan davlat chet tillari institute tomonidan tasdiqlangan o‘quv rejasining (keyingi o‘rinlarda – **O‘quv rejasi**) majburiy (umumkasbiy va ixtisoslik) fanlari o‘quv dasturlari asosida tuzildi.

**2.** Fanlararo yakuniy davlat attestatsiyasi sinovi (keyingi o‘rinlarda – **Attestatsiya sinovi**) O‘zbekiston Respublikasining lOliy ta’limga oid qonun hujjatlarida belgilangan tartibga ko‘ra, bitiruvchilarning Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlaridan biri hisoblanib, unda ta’lim yo‘nalishi xususiyati, iqtidori va xohishiga ko‘ra bitiruv malakaviy ishi yozish istagini bildirmagan, o‘quv rejasidagi ta’lim dasturlarini to‘liq o‘zlashtirgan bitiruvchi kurs talabalari ishtirok etishlari shart.

**3.** Attestatsiya sinovini topshirishga o‘quv reja va fan dasturlarini to‘liq tugatgan va o‘quv rejasida nazarda tutilgan barcha sinovlardan muvaffaqiyatli o‘tgan talabalarga ruxsat beriladi.

**4.** Attestatsiya sinovi O‘quv rejasining umumkasbiy va ixtisoslik fanlarining barchasini qamrab oladi hamda sinov topshiriqlari ushbu fanlar o‘quv dasturlari asosida tuziladi.

**5.** Attestatsiya sinovi fanlar mazmuniga qo‘yiladigan talablar bilan bir qatorda, talaba tayyorgarligining Malaka talablarida bitiruvchiga qo‘yiladigan umumiy talablarga javob bera olish darajasini aniqlashga yo‘naltiriladi.

## II. ATTESTASIYA SINOVI SHAKLI VA MUDDATI

**6.** 2025/2026 o‘quv yilida 60230100-Filologiya tillarni o’qitish (ingliz tili) yo’nalishi bitiruvchilarining Attestatsiya sinovi – **test shakldа** o‘tkaziladi.

**7.** Dastur Institut Kengashi tomonidan tasdiqlangan sanadan boshlab, o‘quv yili yakuniga qadar Attestatsiya sinovi shakli o‘zgartirilishi mumkin emas.

**8.** Attestatsiya sinovi isntitut o‘quv jarayoni grafigiga asosan, o‘quv ishlari prorektori tomonidan tasdiqlangan muddatlarda o‘tkaziladi va kamida bir oy oldin talabalarga yetkaziladi.

## III. ATTESTATSIYA SINOVI SAVOLNOMASI

**9.** Attestatsiya sinovi savolnomasi ta’lim yo‘nalishi Malaka talablarining
- bakalavrlarning tayyorgarlik darajasiga;
- kasbiy faoliyatga;
- umumkasbiy va ixtisoslik fanlariga qo‘yilgan talablarni qamrab oladi.

**10.** Attestatsiya sinovi savolnomasi ta’lim yo‘nalishi O‘quv rejasida keltirilgan quyidagi umumkasbiy va ixtisoslik fanlar dasturlari asosida shakllantirildi:

10.1 Adabiyotshunoshlik
10.2 Adabiyot nazariyasi
10.3 Tili o‘rganilayotgan mamlakatlar adabiyoti
10.4 O‘qish va yozish amaliyoti
10.5 Chet tili o‘qitish metodikasi
10.6 Chet tillarni o'qitishning integrallashgan kursi

| | **ADABIYOTSHUNOSHLIK** |
|---|---|
| 1 | Adabiyotshunoslik fanining vazifalari va strukturasi |
| 2 | Badiiy adabiyot san’at turi sifatida |
| 3 | Badiiy asarga xos xususiyatlar |
| 4 | Badiiy asarda shakl va mazmunning mutanosibligi |
| 5 | Badiiy asarda mavzu va g‘oyaga xos xususiyatlar |
| 6 | Badiiy obraz va uning turlari |
| 7 | Syujet turlari va unsurlari. |
| 8 | Badiiy asar kompozitsiyasi. |
| 9 | Badiiy asar tilining xususiyatlari. |
| 10 | Adabiy tur va janrlari. Epik tur va uning janrlari |
| 11 | Lirika va uning janrlar |
| 12 | She’r tuzilishi |
| 13 | Dramatik tur va uning janrlari |
| 14 | Adabiy yunalishlar va ularning o‘ziga xosligi |
| 15 | Sharq va G‘arb hozirgi adabiy jarayoni |
| | **ADABIYOT NAZARIYASI** |

| | |
|---|---|
| 1 | Badiiy asarda estetik faoliyat tushunchasi. |
| 2 | Amaliy va badiiy san’atlarning mushtarak va farqli tomonlari. |
| 3 | Badiiy san’at turlarini umumlashtiruvchi va farqlovchi jihatlari. |
| 4 | Badiiy san’at turlarini umumlashtiruvchi va farqlovchi jihatlari. |
| 5 | Badiiy adabiyotnining o‘ziga xosligini boshqa san’at turlari,masalan, musiqa va rangtasvir bilan qiyoslash. |
| 6 | “San’at” tushunchasining keng va tor ma’noga ega ekanligi. |
| 7 | Badiiy adabiyot - so‘z san’ati ekanligi (Jahon adiblari asarlari misolida) |
| 8 | San’at turlarining ichida ifodaviy va tasviriy san’at turlarini farqlanishi. |
| 9 | Badiiy adabiyotning san’at turlari orasidagi o‘rni va o‘ziga xosligi. |
| 10 | Inson-san’at va adabiyotning bosh predmeti. |
| 11 | Badiiy san’at turlarini umumlashtiruvchi va farqlovchi jihatlar. |
| 12 | Adabiyotshunoslik maktablarining vujudga kelishi, tarixiy omillari. Jahon adabi yotida mavjud zamonaviy adabiyotshunoslik maktablari. |
| 13 | Strukturalizm maktabining namoyandalari va ularning asarlari. |
| 14 | Rus formalizmi maktabining xususiyatlari. |
| 15 | Avangardlik maktabi tarmoqlari va ularga xos xususiyatlar |
| | **TILI O‘RGANILAYOTGAN MAMLAKATLAR ADABIYOTI** |
| 1 | British fantasy fiction in 20 th century.(J.K. Rowling and John Tolkien) |
| 2 | Modern literature of Great Britain. |
| 3 | Colonial period in American literature |
| 4 | The period of Enlightenment in American literature |
| 5 | Romanticism and transcendentalism in American literature. |
| 6 | Realism in American literature at the end of XIX and beginning of XX centuries |
| 7 | Mark Tven hayoti va ijodi. |
| 8 | O' Genri qisqa hikoyalar ustasi sifatida |
| 9 | Jek London hayoti va ijodi |
| 10 | XIX asr oxiri adabiyotida naturalizm. F.Norris va S.Kreyn |
| 11 | The XX century lost generation of American literature. General Background |
| 12 | Amerika modernizmi. E.Xeminguey |
| 13 | F.S.Fitsjerald, Sh.Anderson,Uilyam Folkner |
| 14 | Jon Steynbeyk va Erskin Kolduel,Robert Frost |
| 15 | XX asr birinchi yarmi Amerika-Kanada adabiyoti tahlili |
| | **O‘QISH VA YOZISH AMALIYOTI** |
| 1 | The importance of reading |
| 2 | Types of literature |
| 3 | Reading strategies |
| 4 | Reading and copying |
| 5 | The mental environment for reading |
| 6 | Reading and technology |

| | |
|---|---|
| 7 | Reading rhythms |
| 8 | The Social Impact of Reading |
| 9 | Reading and Connections |
| 10 | Reading and Creativity |
| 11 | Extracts from plays and novels |
| 12 | Intensive reading |
| 13 | Reading for conclusion |
| 14 | Reports, analyses and commentaries where opinions, viewpoints are presented and discussed |
| 15 | Reitrate |
| 16 | The importance of punctuation in writing |
| 17 | How to improve your sentence structure |
| 18 | The role of editing and proofreading in writing |
| 19 | Tips for developing a strong writing voice |
| 20 | The art of descriptive writing |
| 21 | Avoiding common grammar mistakes in writing |
| 22 | How to create engaging introductions and conclusions |
| 23 | The benefits of outlining before writing |
| 24 | Using transitions effectively in your writing |
| 25 | Incorporating research and citing sources in your writing |
| 26 | Writing persuasive arguments and supporting your claims |
| 27 | The impact of word choice and tone in writing |
| 28 | Developing your storytelling skills in writing |
| 29 | Writing for different audiences and purposes |
| 30 | Overcoming writer's block and staying motivated in your writing practice. |
| | **CHET TILI O‘QITISH METODIKASI** |
| 1 | Chet til o‘qitish metodikasiga kirish |
| 2 | Maktabgacha va boshlang‘ich ta’limda ingliz tili o‘qitish konsepsiyalari |
| 3 | Maktabgacha va boshlang‘ich ta’limda ingliz tili o‘qitish tamoyillari |
| 4 | Til o‘rgatishdagi dastlabki qadamlar |
| 5 | Chet til o‘qitish metodikasining boshqa fanlar bilan aloqasi |
| 6 | Maktabgacha va boshlang‘ch ta’limda ingliz tili o‘qitishning maqsad va vazifalari |
| 7 | Maktabgacha va boshlang‘ich ta’limda chet til o‘qitish mazmuni |
| 8 | Chet til o‘qitish metod va prinsiplari |
| 9 | Til o‘qitishdagi zamonaviy harakatlar |
| 10 | Chet til o‘qitish vositalar |
| 11 | Maktabgacha va boshlang‘ich ta’limda ingliz tili o‘qitish metodikasining lingvistik asoslari |
| 12 | Maktabgacha va boshlang‘ich ta’limda ingliz tili o‘qitish metodikasining psixolingvistik asoslari |
| 13 | Maktabgacha va boshlang‘ich ta’limda ingliz tili o‘qitish metodikasining |

| | |
|---|---|
| | sotsiolingvistik asoslari |
| 14 | Sotsiolingvistik materialni tanlash birliklari va prinsiplari |
| 15 | Til o‘qitishning dolzarb yo‘nalishlari. |
| | **CHET TILLARNI O'QITISHNING INTEGRALLASHGAN KURSI** |
| 1 | Stages of classroom investigation |
| 2 | Formulating a research question |
| 3 | Methods of analyzing |
| 4 | Design date collecting tools and understanding their pros and cons; |
| 5 | Interpreting and presenting the date: The need to collect data sources |
| 6 | The analysis of quantitative data: The need for triangulation |
| 7 | Analysing differences/relationships among variables |
| 8 | Conversation: structured, semi-structured / not structured |
| 9 | Making diaries: records; questionnaires, problematic situations/events; |
| 10 | Students' test results |
| 11 | Psychological feature of foreign language learners |
| 12 | Process of teaching different age learners |
| 13 | Classroom adaptation |
| 14 | The role of teacher in teaching different age learners |
| 15 | Principles of teaching different age group |
| 16 | The types of ESP. English for Occupational purposes |
| 17 | Learning and analysing needs: target situation needs |
| 18 | Learning and analysing needs: learning needs |
| 19 | Setting goals for teaching language to special fields and professions |
| 20 | Teaching approaches in forming instructions |

## IV. ATTESTATSIYA SINOVI NATIJALARINI BAHOLASH MEZONI

**11.** Attestatsiya sinovi bo‘yicha talabalar bilimini baholash O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining 2018 yil 9 avgustdagi 19-2018-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to‘g‘risida”gi Nizom talablari asosida amalga oshiriladi.

**12.** Attestatsiya sinovi bo‘yicha talabalar bilimini baholashda 100 ballik tizim qo‘llaniladi.

**13.** Talaba bilimi Attestatsiya sinovida to‘g‘ri topilgan test savollari soniga nisbatan quyidagi taqsimotda baholanadi:

**45 ta va undan ko‘p** savollarga to‘g‘ri javob berilganda – **90-100 ball (a’lo);**
**35 tadan 44 tagacha** savollarga to‘g‘ri javob berilganda – **70-89 ball (yaxshi);**
**30 tadan 34 tagacha** savollarga to‘g‘ri javob berilganda – **60-69 ball (qoniqarli);**
**29 ta va undan kam** savollarga to‘g‘ri javob berilganda – **0-59 ball (qoniqarsiz).**

Test shaklidagi Attestatsiya sinoviga **100 (yuz) daqiqa** vaqt beriladi.

**14.** Talaba baholash natijalaridan norozi bo‘lgan taqdirda Attestatsiya sinovilari natijalari Komissiya tomonidan e’lon qilingan vaqtdan boshlab 24 (yigirma to‘rt) soat davomida apellyasiya berishi mumkin.

Talabaning apellyasiya murojaati t rektori buyrug‘i asosida tuziladigan Apellyasiya komissiyasi tomonidan 2 (ikki) kun ichida ko‘rib chiqiladi va uning natijasi bo‘yicha qaror qabul qilinadi.

## V. ATTESTATSIYA SINOVI BO‘YICHA TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI VA QO‘SHIMA USLUBIY KO‘RSATMALAR

16. Dasturni o‘zlashtirish bo‘yicha foydalanishga tavsiya etiladigan adabiyotlar ro‘yxati:

**1.** Iriskulov M., Kuldashev A. Theoretical Grammar of the English Languge. T.: 2008
**2.** Sachkova E.V. “Lectures on English Stylistics”. Москва – 2012.
**3.** Holmes, J., 2013. An Introduction to Sociolinguistics. Routledge, New York.
**4.** Wardhaugh, R & Holmes, J., 2015. An Introduction to Sociolinguistics. John Wiley & Sons, Inc
**5.** Irisqulov M.T. Tilshunoslikka kirish. – T., 2008.
**6.** Yo’ldoshev I., Muhammedova S., Sharipova O’., Madjidova R. Tilshunoslik asoslari. – T., 2007/2013.
**7.** Woodward, T. (2001). Planning Lessons and Courses. Cambridge, CUP
**8.** Tomlinson, B. (Ed.) (2010). Materials Development in Language Teaching. Cambridge: Cambridge University Press.
**9.**Boboyev T. Adabiyotshunoslikka kirish – T.: O‘zbekiston, 2002.
**10.** Quronov D. Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslari –T.: Akademnashr, 2017.
**11.** Joahn Kang Shin. (2014) Teaching young learners English. From theory to practice.
**12.** McKay, P. (2006). Assessing Young Language Learners. Cambridge: CUP.

## VI. YAKUNLOVCHI QOIDALAR

**17.** Dasturda belgilangan qoidalar O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmon va qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining, shuningdek ta’lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlari tomonidan qabul qilingan qoida va me’yorlarga zid kelsa, yuqori turuvchi organlarda belgilangan qoida va me’yorlar amal qiladi.

**18.** Dastur institut Kengashi tomonidan tasdiqlangandan so‘ng, yakuniy davlat attestatsiyasi boshlanishidan uch oy oldin talabalar e’tiboriga yetkaziladi hamda institutning rasmiy saytiga joylashtiriladi.

**19.** Fakultet dekanlari tomonidan bitiruvchi kurs talabalariga mazkur Dastur asosida tayyorgarlik ko‘rish va maslahatlar berish uchun zarur sharoitlar yaratiladi.